

MADAYEVA Mu'tabarxon

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar
kafedrasi dotsenti v.b. PhD*

SOBIROVA Malika

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili)
yo'nalishi 3-kurs talabasi*

“FARG‘ONA KELINI” ASARIDA AYOL JASORATI

THE COURAGE OF WOMEN IN THE NOVEL “THE BRIDE OF FERGANA”

ЖЕНСКОЕ МУЖЕСТВО В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ФЕРГАНСКАЯ НЕВЕСТА»

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jurji Zaydonning “Farg‘ona keline” romani misolida Sharq ayolining jamiyatdagi o‘rni, uning ma‘naviy qudrati va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilingan. Asardagi Jahon obrazi orqali ayolning sabr-matonati, aql-zakovati va murakkab hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada arab adabiyotidagi “An-Nahda” (Uyg‘onish) davri, uning madaniy va adabiy jarayonlarga ta‘siri, ikki asosiy yo‘nalishi — milliy merosni tiklash va g‘arb madaniyati ta‘siri tahlil etilgan. Tadqiqotda Jurji Zaydon ijodining ilmiy baholanishi, uning tarixiy roman janrini rivojlantirishdagi o‘rni hamda ayrim tanqidiy qarashlar ham yoritilgan. Asar tahlili orqali ayol obrazining nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy va ma‘naviy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tayanch iboralar: Jurji Zaydon, Farg‘ona keline, Jahon obrazi, ayol mavqei, arab adabiyoti, An-Nahda, tarixiy roman, Sharq ayoli, ma‘naviy qudrat, adabiy tahlil, ijtimoiy rol, arab renessansi, badiiy obraz, tarbiyaviy ahamiyat.

Abstract: This article analyzes the role of women in society, their spiritual strength, and social significance based on Jurji Zaydan’s novel “The Bride of Fergana.” The image of Jahan in the novel reflects a woman’s patience, resilience, intelligence, and ability to make

appropriate decisions in complex life situations. The study also examines the Arab literary renaissance period (An-Nahda), its influence on cultural and literary processes, and its two main directions: the revival of national heritage and the impact of Western culture. Furthermore, the article highlights scholarly evaluations of Jurji Zaydan’s works, his contribution to the development of the historical novel genre, as well as critical perspectives on his writings. Through textual analysis, the educational and moral significance of the female image is scientifically substantiated.

Keywords: Jurji Zaydan, The Bride of Fergana, Jahan image, women’s role, Arabic literature, An-Nahda, historical novel, Eastern woman, spiritual strength, literary analysis, social role, Arab renaissance, artistic image, educational value.

Аннотация. В данной статье на примере романа Джурджи Зейдана «Ферганская невеста» анализируются роль восточной женщины в обществе, её духовная сила и социальная значимость. Через образ Джахан в произведении раскрываются женское терпение, стойкость, интеллект и способность принимать правильные решения в сложных жизненных ситуациях. Также в статье анализируются эпоха «Ан-Нахда» (Возрождение) в арабской литературе, её влияние на культурные и литературные процессы, а также два её основных направления — возрождение национального наследия и влияние западной культуры. В исследовании освещаются научная оценка творчества Джурджи Зейдана, его роль в развитии жанра исторического романа и некоторые критические взгляды. Через анализ произведения научно обосновывается не только художественное, но также воспитательное и духовное значение женского образа.

Ключевые слова: Джурджи Зейдан, Ферганская невеста, образ Джахан, роль женщины, арабская литература, Ан-Нахда, исторический роман, восточная женщина, духовная сила, литературный анализ, социальная роль, арабское Возрождение, художественный образ, воспитательное значение.

KIRISH

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan zamonamiz va jamiyatimizda ayollarning o‘rni beqiyosdir. “Ayol – jamiyatning yarmi” degan ibora bejiz aytilmagan. Jurji Zaydon o‘zining “Farg‘ona keline” asarida ayol kishini jamiyatning

ajralmas bo‘lagi sifatida, shu bilan birga, sabrmatonat go‘zalligi va ma‘naviy barqarorlikning asosiy ustuni deb ko‘rsatadi [1].

Asardagi Jahon obrazi katta kuchga ega bo‘lib, erkak matonatidan ham yuksak timsol sifatida tasvirlangan. Muallif ayolni nafaqat muhabbat timsoli, balki ma‘naviy poklik sari yetaklovchi qudratli kuch sifatida tasvirlaydi. Shu sababli, “Farg‘ona kelin” asari ayol sha‘nini ulug‘lovchi va uning jamiyatdagi beqiyos o‘rmini teran ifoda etuvchi badiiy yodgorlik hisoblanadi.

ASOSIY QISM

XX asrdagi ko‘plab adabiy tadqiqotlarga ko‘ra, arab adabiyotining “Uyg‘onish” (النهضة) davriga mansub yozuvchi va adiblar o‘z izlanishlarida ikki yirik oqim va ikki madaniy manbaga e‘tibor qaratganini isbotlashgan. Ushbu ikki oqim arab adabiyotining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi:

Birinchi oqim: Arab madaniy merosini qayta tiklash.

Ikkinchi oqim: G‘arb ta‘sirida kirib kelgan madaniyatlar.

Shu bilan birga, bu davrning o‘zida yozuvchi va adiblar uchun ichki qarama-qarshiliklar (ziddiyatlar) ham mavjud bo‘lgan [6.38].

“Uyg‘onish” davridan avval yozuvchilik va matbuot rivojlanishi orqali bu ichki ziddiyatlar ham kuchayib borgan. Ushbu madaniy bahs zamonaviy arab adabiyotiga, ayniqsa, nasriy (syujetli) janrlarning shakllanishiga chuqur va hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatgan.

Bu o‘rganishlar natijasida ikki yirik tadqiqotchi: Sabri Hofiz o‘zining “Zamonaviy arab nasriy nutqining shakllanishi” (2002) va Abdulloh Ibrohim “Zamonaviy arab hikoyachiligi” (2003) kitoblarida bu davrning yutuq va kamchiliklarini ochib berishgan [6,7,8].

Shuni aytib o‘tish joizki, ko‘plab tadqiqotchilar Jurji Zaydonning Arab universitetlarining ilmiy tadqiqotlariga qo‘shgan hissasi katta ekanligini ta‘kidlagan. Adib tarixiy voqealarni insoniy histuyg‘ular bilan uyg‘unlikda mukammal tarzda ifoda eta olgan. Ammo, shu bilan birga, tarixiy haqiqiy voqealarni ochiq dalillar bilan keltira olganiga qaramay, uning ayrim asarlarida Islom

tarixini noto‘g‘ri talqin qilganligi ochiqchasiga tanqid qilingan.

Jumladan, Tomas Filipp Zaydonni faqat tarixiy romanlar muallifi sifatida emas, balki “Arab milliy uyg‘onishi”ning shakllanishida markaziy rivojlantiruvchi yozuvchi sifatida ko‘rib chiqadi. Uning fikricha, Zaydon tarix, til va milliylik haqidagi mulohazalarini bir butun tizimga birlashtirgan [9.56].

Driss Al Xadra esa Zaydonning ijodi va uning “adabiy institut” (jurnalistika va nashriyot tizimi) orqali Arab adabiyotini zamonaviy shaklga olib kelishdagi rolini tahlil qilgan. U Zaydonni “modern arab nasriy adabiyotining poydevori” deb baholaydi [6. 15].

Mana shu o‘rinda yozuvchining asarlarini kuchli tanqid qilgan olimlar fikriga nazar solsak, Shayx Amin ibn Hasan “Zamonaviy Misr tarixi” (تاريخ مصر الحديث) kitobida 101 ta xatoni ko‘rsatib tahlil qilgan holatida tarixiy yondashuvlari aniq ma‘lumotlar bilan keltirilmagani haqida tanqid qilib yozib o‘tgan. Quyida adibning asosiy kamchiliklarini sanab o‘tgan:

- ba‘zi fikrlarni qo‘llashlikda turli xilma-xilliklar;
- tarjima (Biografiyalar) juda qisqa va mazmun izohsiz berilishi;
- asl mavzuga aloqasi bo‘lmagan ma‘lumotlarni bo‘rttirib yuborishi;
- sharqshunoslarning da‘volariga tanqidsiz ergashishi
- mavzulashtirish va aloqadorliklarning izchil emasligi va o‘quvchi fikriy xulosaga kelishidagi qiyinchiliklar deb, sanab o‘tgan [4.26].

Jurji Zaydon “Farg‘ona kelin” asarining asosiy g‘oyasini Jahon obrazi orqali mohirona aks ettira olgan. Bu obraz sharq ayollarining jasorati, ruhiy holati, qiyin vaziyatlarda aql va idrok bilan chiqib ketishi namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Muallif bu bilan nafaqat roman qiziquvchilarining, balki til o‘rganuvchilarning ham e‘tiborini jalb qilishga erishgan.

Asar voqealari IX-asr Arab xalifaligi davridagi tarixiy fon ustida rivojlanadi. Romandagi ayol obrazi — Jahonning jasorati, matonati va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Aynan o'sha IX-asrda xalifalik hududida xalq harakatlari avj olgan edi. Ularning eng dahshatlisi Bobak qo'zg'oloni bo'lgan. Xurramiylar yetakchisi Bobak Ozarbayjon, Armaniston va Shimoli-g'arbiy Eronda yigirma yildan ortiq kurash olib borgan. Hatto xalifa Ma'mun (813-833) ham bu qo'zg'olonni bostirishga ojizlik qilgan. Shu davrda Misrda ham qo'zg'olon ko'tarilib (829-832), unda qatnashgan va boshchilik qilganlarga nisbatan qattiq jazolar tayinlangan. Bundan tashqari, ayni shu davrda davlat taxti uchun ichki ziddiyatlar ham kuchaygan edi [4.39].

Hatto, arab qo'shinlariga ham ishonch qolmagan edi. Asar qahramoni Afshiyn (الأفشين) shunday deydi: «العربي بمنزلة الكلب، اطرخ له» - «Arablar it o'rnida – ularga bir bo'lak suyak tashla va boshiga ur». Adabiyotchilar bunday fikrlarni yozish orqali yozuvchi, qahramon tilidan o'zi gapirgan bo'lishi mumkin deb taxmin qilganlar. Natijada esa Xalifa to'g'ri yechim izlagan holatida o'z qo'shin qo'mondonlariga O'rta Osiyo hududlaridagi jasur va baquvvat yigitlardan qo'shin yig'ishlarini buyuradi.

Asardagi ba'zi qahramonlar o'z mansabi va hattoki lavozimini suiiste'mol qiladilar. Hatto, xonadonlarda ikkiyuzlamachilik oila muqaddas rishtalarigacha yovvoyi pechakdek o'rmalab kirgandi. Asarning bosh qahramoni Jahon va Zirg'omning har qanday xursandchilik yoki xafagarchilik kunlari bo'lishidan qat'iy nazar ular bunday kunlarda insoniy his tuyg'ular va sadoqatlari bilan oila va jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini unutib qo'yishmadi balki qahramonlarcha o'z sha'nli ila va'dalariga sodiq qolishdi.

Roman avvalida Jahoning tengi yo'q husni, har qanday qiyin vaziyatlarda avvalo otasiga yordamchi sarishta qiz, haqiqiy tadabburli ayol, akasi uchun sadoqatli singil, agar gapiradigan bo'lsa, bir so'zidan qaytmaydigan irodali qiz ekani yozuvchi tomonidan mohirona uslub bilan ochib berilgan. Shu bilan birga, romanda Hokimning ahvoli og'irligi buning natijasida Jahon chuqur tashvishda va oilasini hurmat qiluvchi va yaxshi ko'ruvchi ekani ifori sezilib turadi. Lekin tangani ikki tomoni bo'lgandek uning akasi Somon esa buning aksi ekanini o'qigan kitobxon taajjublanadi. O'z otasining kasalligi va so'ngi iltimosini ham

bajarmagani, e'tiborsiz qoldirgani ko'rgan Jahon hatto o'z o'g'li ko'rsatmagan mehr va iltimos talabini bajarishlikni o'z zimmasiga oladi. Bundan ko'rinish turibdiki, oilada ayol kishi o'zini har doim ham zaifa sifatida qabul qilmay, uning ustidagi vazifa va mas'uliyatini muhabbat va aql bilan yecha olishini Jahon obrazi isbotlab bergan.

Meros otasidan so'ng eng haqli bo'lgan Jahonga qolganidan so'ng akasi Somoning xasadi oshib keti. Otasi tomonidan Jahonga Afshin vasiy kishi sifatida tayyorlandi. Afshining Jahoning otasidan katta yoshli kishi edi. U bilan bo'ladigan me'ros haqidagi suhbat davomida Jahon odob saqlagan holatda unga tashakkur aytadi va chuqur qayg'uda ekani takidlab o'tadi. Lekin otasining ishonchiga hiyonat qilgan do'st vasiylikdagi qizga o'z tuyg'ularini oshkora qila boshlaydi. Va unga Jahon: "Sayyidim menga javohirlarni keragi yo'q, men azadorman. Agarda otam tirik bo'lganida bunday deyishiga botina olmagan bo'lar edingiz", - deb keskin javob beradi va bu muammodan qutilish uchun yo'l izlay boshlaydi.

Romaning eng ko'zga yaqqol tashlanuvchi va g'azabga sabab bo'luvchi tuguni, Somonning o'z singlisiga xiyonati edi (u bir necha yillar avval ikki egizak singillarini ajratib, ulardan birini sotib yuborganini bilgan sezgir o'quvchi uning tabiatida tug'ma xiyonatkor, xasis ekanini ko'radi). Jahon qanchalar kuchli va aqilli bo'lmasin o'z akasiga otasiga ishongandek ishonardi, shu bois u bilan uzoq safarga chiqishlikka qaror qabul qiladi, Jahoning bu qarori bilan uning oilaga bo'lgan hurmati va sadoqatini isbotlaydi [14].

Romaning eng kulminatsiyon nuqtasi bu - roman qahramoni Jahonning o'z akasining xiyonati orqali Xurramiylarning qo'liga o'tib ketishi bo'ldi. Avvaliga buni Jahon akasining ishi ekani bilmaydi, ammo o'tkir fahmi orqali akasining yolg'on, qaltiragan, hazilanomuz so'zlaridan tezda anglab oladi. Farg'ona hokimining nasl-nasabli qizi o'z akasining xiyonati tufayli xalifalikka qarshi qo'zg'olon ko'tarayotgan hurramiylar to'dasining boshlig'i Bobak qo'liga tutib berildi. Bu vaziyat uning ichki, sof dunyosini ostin-ustun qilib yubordi.

Ammo Jahon Bobakning ayollarga o'ch ekanini, ular bilan bir tunni o'tkazish va aysh-u ishrat qilish uchun hamma narsaga tayyor turishini

avvaldan bilardi va Armaniston hokimi Bobak bilan bo'ladigan suhbatda aytadigan so'zlarini go'yo ipga terilgan durdek saralab, tayyorlab oldi. Boshiga o'z yaqinidan xiyonatdek og'ir sinov tushgan bo'lsa-da, u o'ziga kuchli bo'lishni, aslida nasl-nasabli va o'z yurtida hurmatga sazovor ayol ekanini qayta-qayta takrorlab, o'zida kuch topa oldi va bunga erishdi ham.

Jahon Bobakka shunday mohirona javob qaytardiki, Armaniston hokimi go'yo boshiga bir gurzi bilan urgandek bo'ldi. Hatto uning o'tkir nigohidan Bobak, ichini sezdirmasa ham, dag'-dag' qaltirardi. (Buning sababi: avval hech qaysi ayol uning ko'ziga tik qarab, uni qat'iy rad etgan holatda gapirishga jur'at qila olmagandi).

“Men Farg'onadan qanchalik uzoqda bo'lmay, hozir yoningizda turib ham Farg'onadan yoki undan ham olisroqda turgandekman. Men sizdan dovyurak va kuchliroq bir insonning qiziman. Agar meni qasr tashqarisida asir olingan cho'ri ayollarga tenglashtirgan bo'lsangiz, qattiq yanglishasiz!” deb keskin javob berdi.

Buni eshitgan Bobak ko'z o'ngidan butun bir boshdan kechirgan hayoti soniyalarda o'tib ketganday bo'ldi. Kunlar birin-ketin o'tsa-da, Jahon hech yengilmas edi. Aksincha, Bobakni o'zi sezmasa-da, kesatqli-piching va ba'zan o'rinli gaplar bilan asta-sekin tarbiyalab borardi. Bir kun suhbatida u Bobakning Xalifaga qarshilik qilishga botina olgan, boylik to'play olgan inson ekanini yana bir bor eslatib qo'ydi.

Shu o'rinda Jahon o'zi tabiatan may-sharoblarni yoqtirmagani uchun unga xuddi yomonlik timsoli va inson tabiatini buzuvchi narsa sifatida qarar edi.

Shu bois, Jahon vaziyatga yechim izlab, Bobakni avvalgi aysh-u ishrat hayotidan kuchli bir qo'mondon sifatiga qaytara oldi. Bu jasorati bilan hatto butun boshli qasr va xurramilar og'ziga tushgandi. Bu ishi bilan u o'z or-nomusi, sha'nini saqlabgina qolmay, bir insonni zalolatdan qutqara olishning yorqin namunasini ko'rsatdi va uni kuchli qo'mondonlik darajasigacha olib chiqa oldi.

Natijada Bobak ko'plab urushlarda qayta-qayta g'alabalarga erishadigan bo'ldi. Uning dovrug'i esa hatto Xalifa huzuriga yetib bordi: “Tadbirli va aqlli bir ayolning sharofati bilan ancha

o'zgarish yuz bergani, Bobakning jilovini qo'liga olgan ayol va uning buyuk aql-irodasiga ofarin!” degan gaplar eshitildi.

Musulmonlar tomonidan fath qilishga tayyorlanayotganda Bobakning boshqa chorilari yashirinish uchun joy qidirishar, lekin Jahon o'z qashqir otiga minib viqor bilan yurardi. Bu esa Musulmon qo'shini orasida katta shov-shuvga sabab bo'ldi.

Asar nihoyasida u o'z sevgisiga uzoq sinovlarni boshdan kechirgandan so'ng erishdi.

XULOSA

“Farg'ona kelini” tarixiy romanida ikki asosiy tugundan iborat: tarixiy tugun, ishqiy yoki insoniy tugun. Bular tarixiy voqealar ichida siyosiy, diniy, mazhabiy kurash bilan bir qatorda romantik yoki ijtimoiy kurashni ham o'z ichiga oladi. جرجي زيدان قال: «فاعمة في روايتنا على التاريخ، إنما جرجي زيدان قال: «فاعمة في روايتنا على التاريخ، إنما Jurji Zaydon o'z kitobining yakunida: “Bizning romanlarimizning asosi tarixdir, hikoya tafsilotlarni esa o'quvchini qiziqitirish uchun keltiramiz”. – degan [13.236].

Shu sababli, adabiyotshunos Abdulmuhsin Taha Badr Jurji Zaydon tarixiy romanlarini ta'limiy, ko'ngilochar romanlar qatoriga kiritadi [9.47].

“Farg'ona kelini” romanidagi Jahon obrazi nafaqat roman qahramoni, balki Sharq ayolining mukammal timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Muallifning bosh maqsadi — ayolni zaif, faqat muhabbat timsoli sifatida emas, balki aqliy qudrat va jamiyatning tayanch ustuni sifatida ko'rsatishdir.

Ayolning ma'naviy qudrati: Akasining xiyonati va murtad qo'mondon qo'liga tushishdek og'ir sinovda Jahon o'z ichki pokligi va irodasini yo'qotmaydi. U Bobakka qat'iy rad javobini berib, o'z nasl-nasabi va sha'nini ustun qo'yadi.

Shaxsni o'zgartira olish qobiliyati: Jahon o'z aqli va o'rinli so'zlari bilan qo'zg'olonchi Bobakning xarakterini ijobiy tomonga o'zgartira oladi, uni aysh-ishratdan uzoqlashtirib, muvaffaqiyatli qo'mondonga aylantiradi. Bu, ayolning tarbiyaviy va ma'naviy yo'naltiruvchi rolining yorqin isbotidir.

Oilaga sadoqat: U otasining so'nggi iltimosini bajarishga bel bog'laydi va akasining xiyonatiga

qaramay, oilaga bo'lgan hurmati va mas'uliyati tufayli safarga o'tlanadi.

“Farg'ona kelini” – bu shunchaki tarixiy voqealar fonidagi ishqiy hikoya emas. asar Jahon timsolida ayolning eng murakkab sharoitlarda ham aql, jasorat va sadoqat bilan nafaqat o'z taqdirini, balki boshqa bir yirik tarixiy shaxsning yo'nalishini ham o'zgartira olishini isbotlovchi, ayol sha'nini ulug'lovchi adabiy asardir. Ushbu jihatlar uning o'quvchilar uchun nafaqat qiziqarli, balki ta'limiy ahamiyatini ham oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Yangi O'zbekistonda ayollarning ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion rivojlanish jarayonidagi o'rni” (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi o'rnini oshirish bo'yicha). – Buxoro, 2024-yil, 15-fevral.
2. Sustainable Development: Initiatives of Women in Science and Business. IV xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent: Erasmus Uzbekistan, 2024. URL: <https://erasmus.uz/en/publications/338-iv-international-conference-sustainable-development-initiatives-of-women-in-science-and-business>
3. “Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash dasturi (2022–2026-yillar)”. – O'zbekiston Respublikasi rasmiy davlat dasturi. – Toshkent, 2022.
4. Shayx Amin ibn Hasan. تاريخ مصر الحديث / Zamonaviy Misr tarixi. – Qohira: Dar al-Ma'arif, 2002.
5. Philipp, Thomas. Jurji Zaydon va Arab milliy uyg'onishi (maqolalar to'plami va tadqiqotlar). – Syracuse, NY: Syracuse University Press, 2010.
6. Al-Khadra, Driss. The Formation of the Arab Literary Institute // Journal of Arabic Literature // Vol. 46, No. 1, Poetry & Protest (2015)
7. Hofiz, Sabri. Zamonaviy arab nashriyoti shakllanishi. – Qohira: Dar al-Ma'arif, 2002.
8. Ibrohimov, Abdulloh. Zamonaviy arab hikoyachiligi. – Bayrut: Al-Markaz as-saqafi al-arabi, 2003.
9. Arab tili va adabiyotining modern davri tahlili (maqolalar to'plami). – Ziyonet elektron kutubxonasi. URL: <https://ziyonet.uz>
10. وزارة الثقافة، دولة قطر. Rasmiy madaniyat axborot manbasi. – Doha: Qatar Ministry of Culture. URL: <https://www.moc.gov.qa>
11. حمداوي، جميل. “منبر حر للثقافة والفكر والأدب”. – 27 نوفمبر 2025. URL: <https://www.alukah.net>
12. جورجى زيدان. عروسة فرغانة. – Bayrut: Dar al-Ma'rifa (Marefa). URL: <https://www.marefa.org>
13. جورجى زيدان. عروسة فرغانة. Tarixiy roman. – Qohira: Mu'assasat Hindawi li-t-ta'lim wa-s-saqafa, 2012. URL: <https://www.hindawi.org/books/36379464/>
14. Jurji Zaydon. Farg'ona kelini (tarixiy roman, o'zbekcha tarjima). – Toshkent, 1971.
15. قاسم أمين. تحرير المرأة. – Qohira: Dar al-Ma'arif, 1899; qayta nashr: Mu'assasat Hindawi li-t-ta'lim wa-s-saqafa, 2012. URL: <https://www.hindawi.org>